



The fight against corruption is the main requirement for building an economically and politically stable state (experience in China, Japan, and Germany)

Abrorkhuja MUMINKHUJAEV¹

Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan Specialized Boarding School

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2023

Received in revised form

15 November 2023

Accepted 25 November 2023

Available online

15 January 2024

Keywords:

corruption,
corruption crimes,
statistics,
EU,
government,
legislation,
delinquency,
rating,
bribery,
reform.

ABSTRACT

The article examines a pressing problem of modern society and the state – the fight against corruption. The author notes that corruption began to manifest itself noticeably in the second half of the 20th century and by the beginning of the 21st century it had become a global threat. The work analyses the causes and factors contributing to the emergence of corruption, and presents the author's point of view on this problem.

The article focuses on the experience of countries that have developed the most effective methods of combating corruption. The success of these states is analysed, many of which have achieved significant results in this area, despite the lack of a long history or deep spirituality. Particular attention is paid to the experience of China and Japan, countries close to Uzbekistan from the point of view of spirituality and history, as well as the experience of Germany after the second half of the 20th century. It examines how these countries' approaches, including legal, financial and governance aspects, differ from those of other countries and how they may be useful in the context of Uzbekistan. Overall, the article emphasizes the importance of studying and adapting successful international experiences in the fight against corruption.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss10/S-pp240-247>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan specialized boarding school. Tashkent, Uzbekistan.
E-mail: abrorkhuja@inbox.ru

Korrupsiyaga qarshi kurash iqtisodiy va siyosiy mustahkam davlat qurishning asosiy talabi sifatida (Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Germaniya Federativ Respublikasi misolida)

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

korrupsiya,
korrupsion jinoyatlar,
statistika,
Yevro Ittifoq,
hukumat,
qonunchilik,
huquqbuzarlik,
reyting,
poraxo'rlik,
islohot.

Maqolada hozirgi davrda jamiyat va davlat rivojlanishi yo'lida asosiy to'siqlardan biriga aylanib ulgurgan muammo – korrupsiya muammosiga qarshi kurashish yo'llari va choralari haqida so'z yuritiladi. Mavzuga oid ilmiy ishlarni o'rganish davrida to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, korrupsiya muammosi hali juda yosh ekanligi, XX asrning ikkinchi yarmida faollasha boshlagani, lekin qisqa muddat ichida, ya'ni XXI asrning boshiga kelib global darajada xavf tug'dira boshlagani eslatib o'tilgan. Muallif jamiyatning global muammolari safiga yaqindagina qo'shilgan mazkur illatning paydo bo'lish sabablari, uni harakatga keltiruvchi omillar haqida shu yo'nalishda faoliyat olib borgan olimlar va o'zining fikrlarni berib o'tgan.

Maqolaning asosiy mazmun-mohiyatini korrupsiya muammosiga qarshi kurashishda ancha samarali yo'llarni ishlab chiqqan davlatlarning tajribalari, ular tomonidan ko'rilgan muvafaqiyatli choralar tahlili tashkil qiladi.

Борьба с коррупцией – как основное требование построения экономически и политически стабильного государства (опыт КНР, Японии, ФРГ)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

коррупция,
коррупционные
преступления,
статистика,
ЕС, правительство,
законодательство,
преступность,
рейтинг,
взяточничество,
реформа.

В статье рассматривается актуальная проблема современного общества и государства - борьба с коррупцией. Автор отмечает, что коррупция стала заметно проявляться во второй половине 20-го века и к началу 21-го века превратилась в глобальную угрозу. В работе анализируются причины и факторы, способствующие возникновению коррупции, и представляется точка зрения автора на эту проблему.

Основное внимание в статье уделяется опыту стран, которые разработали наиболее эффективные методы борьбы с коррупцией. Анализируется успех этих государств, многие из которых достигли значительных результатов в этой сфере, несмотря на отсутствие длительной истории или глубокой духовности. Особое внимание уделяется опыту Китая и Японии, стран близких Узбекистану с точки зрения духовности и истории, а также опыту Германии после второй половины 20-го века. Анализируется, как применяемые в этих странах методы, включая правовые, финансовые и государственные аспекты управления, отличаются от подходов других стран и как они могут быть полезны в контексте Узбекистана. В целом, статья подчеркивает важность изучения и адаптации успешного международного опыта в борьбе с коррупцией.

*Kuch korrupsiyani tanlamaydi. Qo'rquv, balki
kuchni yo'qotish qo'rquvi korrupsiyani tanlaydi.
Jon Steinbek*

Korrupsiya insoniyatning ijtimoiy guruhlariga birlashgan, taraqqiy eta boshlagan davrlaridan beri hayotning bir qismi bo'lib kelmoqda. Shunga qaramay, jamiyatning bu illati faqatgina XIX asrning 80-yillaridan beri jiddiy o'rganila boshlandi. Uning ko'rinishlari, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jarayonlarga zarar yetkazish yo'llari turlicha bo'lib, ular haligacha to'la o'rganib chiqilmagan. Korrupsiyaga qarshi kurashishning aniq strategiyasi yoki chorasi haligacha ishlab chiqilmaganligining sabablaridan biri - uning ijtimoiy guruhlarda o'zini har xil tomondan namoyon qilishi yoki bir xalq tajribasida yuqori natijalarga olib kelgan usulning boshqa bir davlat hayotida hech qanday ijobiy o'zgarishlarga olib kelolmasligi bilan izohlash mumkin.

Korrupsiya so'zi, lotin tilidagi "corruptus" so'zidan olingan bo'lib, hokimiyatning (qonun ishlab chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud) biron bir lavozimidan g'ayri insoniy maqsadlar yo'lida foydalanish, hukumatga tegishli bo'lgan mol-mulkni noqonuniy o'zlashtirish yoki maqsadli sarflashdan qochish kabi ma'nolarni bildiradi [1]. Bu muammoning siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga shu davrgacha kuchli ta'sir qila olmaganini olimlar mulk shakllarining ichida yaqin davrlargacha davlat mulkining yuqori o'rinni saqlab turgani bilan izohlaydi. Bu ko'rsatkich turli davlatlarda turlicha bo'lib, o'tgan asrning ikkinchi yarmigacha jahon bo'yicha o'rtacha 90% atrofida bo'lganini hisobga oladigan bo'lsak, iqtisodiy tomondan davlatdan mustaqil bo'lmagan aholining korrupsiya holatlariga jiddiy yo'l qo'yishga ehtiyoji hamda imkoniyati deyarli yo'q edi. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining bergan ma'lumotlariga ko'ra, 2016-yil yakuni bo'yicha O'zbekistonda davlat mulkining 60 foizi xususiy lashtirilgani ma'lum bo'ldi. Bu ko'rsatkich Fransiyada 62, Italiyada - 60 foizni, Yaponiyada - 55 foizni, Germaniyada - 54 foizni, Buyuk Britaniyada - 53 foizni, AQShda - 52 foizni, Qozog'istonda - 25,6 foizni, Rossiyada - 20 foizni tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat vakillariga aylangan fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy va yuridik tomondan mustaqil bo'lib olish, sog'lom raqobatdan qochish, o'z ta'sir doirasini oshib borishga bo'lgan harakatlari korrupsion jarayonlarni misli ko'rilmagan darajada rivojlantirib, global muammolar qatoriga qo'shdi. Yevro Ittifoqning bergan ma'lumotlariga ko'ra, korrupsiya Yevropa davlatlarining har biriga yiliga 179 milliarddan 990 milliard yevrogacha zarar yetkazib kelyapti [2]. Korrupsion jinoyatlar ko'lamining bunday qisqa davrda hayratli darajada yuqorilaganini siyosatchilar iqtisodiy omillardan tashqari yana qonun ishlab chiqarishdagi, uning ijrosidagi sustkashlik va axloqiy tarbiyaning yetishmasligi, buning natijasida esa jamiyatda tartibsizliklarga yo'l qo'yib turuvchi qatlamning yuzaga kelishi bilan izohlaydi. Davlat va jamiyat taraqqiyotini ta'minlash yo'lidagi eng asosiy muammolar avvalida korrupsion jinoyatlarni to'xtatish muammosi turibdi.

Korrupsiya muammosi O'zbekiston sharoitida ham o'zining qanday qudratli kuchga ega ekanligini ko'rsatishga ulgurdi. Bu muammoning qanchalik jiddiy ekanligini 2017-yil 3-yanvar kuni Prezident tashabbusi bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilingani ham ko'rsatib turibdi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 8-dekabrda so'zlagan nutqida 2018-yilning o'zida 1117 nafar davlat xizmatchilarining korrupsiya jinoyatini sodir etganligi

aniqlanganligini ma'lum qildi. Bunday ko'rsatkich bilan esa davlat hech qanday ijobiy natijalarni qayd eta olmasligini ta'kidlab o'tdi. Shuningdek, Prezidentimiz Oliy Majlis palatalarida korrupsiyaga qarshi kurash qo'mitalarini tuzish taklifini ham bildirdi. O'zbekiston aholisining ijtimoiy hayotida korrupsion holatlarning ancha chuqur ildiz otgani davlat darajasida tan olindi. O'zbekiston hukumati bu illatning fuqarolar hayotidan olib tashlanishi uchun davlat darajasidagi keskin choralar siyosatini boshlaganiga hali ko'p bo'lgani yo'q. Shunday ekan, korrupsiyaning moslashuvchan, o'zgaruvchan, qiyofasini o'zgartira olish xususiyatlarini hisobga olgan holda xorij tajribasini o'rganish, korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonining sifat darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xitoy. Xitoy davlatida ijtimoiy holat o'ziga xos bo'lib hukumat korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining son jihatidan ko'pligini va ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi yashash sharoitlari keskin farq qilishi kabi omillarni hisobga olib kelyapti [3]. Xitoy qonunchiligida xususiy mulk daxlsizligini davlat organlari ta'minlashi belgilangan. Xususiy mulkka bo'lgan har qanday tajovuz eng og'ir jinoyatlar qatorida qattiq jazolanadi. Bunday jinoyatga befarq qaragan politsiya yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi to'g'ridan-to'g'ri jinoyatga sheriklikda ayblanadi. Xususiy mulk egasi va hukumat o'rtasidagi shartnoma hech qachon o'zgartirilmaydi. Xitoyda bu qonunning o'rnatilganligi davlatning investitsion jozibadorligini ham oshiradi. XXR jinoyat kodeksining 383-moddasida 5 ming yuanlik korrupsion holat uchun 2 yilgacha qamoq jazosi undan yuqori holatlar uchun esa mol-mulk musodarasi, uzoq muddatli yoki bir umrli qamoq jazosi va o'lim jazolari qo'llanilishi belgilangan [4]. Xitoy xalq Respublikasi davlat rahbari Si Zin Pin 2012-yilda korrupsiyaga qarshi boshlagan keng qamrovli kompaniyasida hokimiyat vakillariga aholining ishonchini yo'qotmaslik va axloqiy normalarni saqlash maqsadida moddiy jihatdan kamtarona hayot kechirish talabini qo'ydi. Qog'ozbozlik Xitoy davlatining u buyuk imperiya bo'lgan davrlaridan beri eng og'riqli nuqtalaridan biri bo'lib kelgan. Hatto kommunistik tuzumning hukumatga kelishi ham bu muammoni yengillashtirmadi. Faqatgina bozor iqtisodiyotiga o'tish bu muammoni hal etish, davlat siyosatining muvaffaqiyatini ta'minlash omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Qog'ozbozlik korrupsiyani hal etish chorasi sifatida Xitoydagi har bir ma'muriy hududlarda, katta tashkilotlarda, ta'lim muassasalarida kompartiyaning vakolatli vakillari faoliyati yo'lga qo'yilgan. O'rta yoshdagi kadrlarning eski siyosat ta'limoti vakillari ekanliklarini hisobga olib yuqoridagi vakillar faqat yoshlar qatlamidan tanlab olinadi. Hukumat rahbarining 2012-yil 11-dekabrda "Agar biz korrupsiya masalasini hal qilmasak, bu kommunistik harakat uchun halokatli oqibatlarga, hatto, bu partiyaning qulashiga olib kelishi mumkin [5]", degan so'zlari siyosiy faol yoshlar o'rtasida shiorga aylantirildi. Yosh kadrlarning ish faoliyatini qonunbuzarliklarsiz olib borishga moyil ekanliklarini hisobga olib, rahbar xodimlar orasida yoshlarning ko'paytirilishiga alohida e'tibor berilyapti.

Xitoy hukumati tomonidan ko'rilayotgan bunday keskin choralar o'z ijobiy natijalarini ko'rsata boshladi. Xalqaro Wealth-X tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, jahondagi 3000 ta milliarderlardan 338 tasi Xitoy fuqarolari bo'lib, Xitoy bu ko'rsatkich bo'yicha faqat AQSh dan orqada hisoblanadi. Jahon bankining hisob-kitoblariga ko'ra, davlatda o'rtacha har ikki kunda 2 ta milliarder yetishib chiqyapti. Xitoyning ichki tekshiruvlariga ko'ra, Xitoyda milliarderlar soni hozirda 900 dan oshiq bo'lib, ular bu ko'rsatkichda AQShni allaqachon ortda qoldirdi. Bundan tashqari yaqin 15 yil ichida Xitoyda qashshoqlar soni 700 million kishiga kamaydi. Bunda aholi sonining tez

sur'atlarda o'sib borayotganligini ham inobatga olish zarur. Korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat boshqaruvidagi Xitoy tajribasini Jahon banki ham eng samarali deb tan olib, 1983-yil aholining 63% qashshoqlikda yashagan bo'lsa, 2018-yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich 2% ni tashkil qilayotganini ma'lum qildi [6]. Aniqlik uchun biz ko'proq dalillar keltiramiz. Theglobeconomy.com tomonidan tuzilgan Medina va Shnayder indeksiga (2018) ko'ra, Xitoyda YaIMning Fransiya va Shvetsiyada bo'lgani kabi "soyada"gi qismi 11,74% ga ega. Taqqoslash uchun: Isroilda 19,18%, Ukrainada - 57%, Gruziyada - 53,07%, Rossiyada - 31,04% [7]. Transparency Internationalning Korrupsiyaga yo'l qo'yish reytingida Xitoy 180 ta davlat ichida 2018-yilda 86-o'rinda bo'lib, korrupsion indeksi 5 % ga yaxshilandi.

Germaniya Federativ Respublikasi. O'zining qonunga bo'lgan yuqori hurmati va itoatkorligi bilan nafaqat Yevropada, balki butun dunyoda ma'lum bo'lgan nemis xalqi bu o'rinda boshqa xalqlarga o'z muvaffaqiyatlari bilan namuna bo'lish darajasiga XIX asrdayoq erishgan. Germaniyaning Federal jinoyatlar byurosi taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, 2007-yilda 9554 ta korrupsion jinoyatlar fosh etilgan bo'lsa, 2011-yil ularning soni 46795 ga yetdi. Lekin bu ko'rsatkich Germaniya fuqarolari korrupsiyaga moyilligi oshganini emas, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda o'tkazilayotgan islohotlarning samarasi yuqori bo'layotganini bildiradi. Germaniya hukumati ko'proq korrupsion holatlarni to'xtatib qolayotganini prokuratura xodimlarining soni oshirilishi va prokratura huzurida ma'lumot beruvchining shaxsi sir tutilishini kafolatlaydigan ishonch telefonlari joriy etilgani, soliq va jinoiy ishlar politsiyasi o'rtasida hamkorlikning kuchaytirilgani, butun Yevro Ittifoq bilan hamkorlik harakatlarining kuchaytirilgani bilan izohladi.

Tadqiqotchilarning aniqlashicha, korrupsion holatlarga davlat amaldori ishga tayinlanganidan keyin o'rtacha ikki yil o'tib yo'l qo'yishni boshlaydi. Buning oldini olish uchun esa moddiy javobgar mansabdorlar xizmat joylari tez-tez almashtirilib, o'zlari uchun yangi bo'lgan muhitga tashlanadi. 1997-yilda Germaniyada korrupsiya haqidagi qonun qabul qilindi. Qonunning qabul qilinishi Federativ Respublikaning Jinoyat kodeksiga qo'llaniladigan jazo darajalarini o'zgartirishiga sabab bo'ldi. Fuqarolarning korrupsiya holatidan uzoqda bo'lishlarining yana bir sababi, Germaniya Jinoyat kodeksining 29-bo'limida korrupsion harakatni bajargan jismoniy va yuridik shaxslarga bir xil o'g'ir jazo qo'llanilishi belgilanganidadir. Yuqori mansabdor shaxslarning poraxo'rlik yoki davlat mulkini o'zlashtirishga urinishi ular uchun barcha imtiyozlardan va nafaqa olish huquqidan mahrum bo'lishiga sabab bo'ladi. Hukumat organlariga qurilish va farmosevtika sohalaridan boshqa davlatlarga nisbatan eng kam shikoyatlar tushishi bu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarning natijasini belgilab beryapti. Germaniya hukumati fuqarolarida korrupsiyaga nisbatan axloqan komillikni yuqori darajada doimiy targ'ib etib keladi. Aholining 68% korrupsiya davlat siyosatiga tahdid deb hisoblaydi [8]. Katta tashkilot yoki korxonalariga huquqni muhofaza qiluvchi organlardan vakil birlashtiriladi. Germaniyaning hukumati fuqarolarning bilish huquqi bor deb hisoblagan har qanday ma'lumotni ochiq manbalarda taqdim etib boradi. Bu esa fuqarolarga siyosiy va ijtimoiy holatning aslida qandayligi haqida umumiy tasavvur olishiga sharoit yaratadi. 2013-yili Germaniya korrupsiya eng kam uchraydigan davlatlar reytingida 13-o'rindan 12-o'ringa ko'tarildi.

Yaponiya. Korrupsiyaga qarshi kurashishdagi Yaponiya davlatining o'ziga xosligi shundaki, bu davlat tarixan korrupsiyaning juda ko'plab ko'rinishlarini boshdan

kechirishiga to'g'ri keldi. Yaponiya hukumati kuchli demokratik jamiyatga asoslangan xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish, ularni o'z sharoitida sinab ko'rish va joriy etishga alohida e'tibor qaratib kelyapti. Yaponiya qonunchiligida korrupsiyaga qarshi yagona hujjat mavjud emas. Bunday normalar turli xil qonunlarda mavjud: "Davlat xizmatchilarini saylash to'g'risida"gi (1950), "Parlament to'g'risida" gi (1950), "Siyosiy fondlarni tartibga solish to'g'risida" gi (1948), va "Davlat xizmatchilari to'g'risida" gi (1948), "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'g'risida" gi (1947) Qonunlar korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqiy hujjatlar hisoblanadi. Ushbu qonunlarning har biri uning qoidalarini qo'llash samaradorligini hisobga olgan holda doimiy ravishda takomillashtirib boriladi va o'z kuchini va hozirgi kunga moslikni saqlab qoladi. 2018-yilgi Transparency International xalqaro tashkilotining tekshiruvlari natijalariga ko'ra, Yaponiya korrupsiya eng kam uchraydigan davlatlar o'rtasida 19-o'rinni egalladi. Hukumat bunday natijani targ'ibot va keskin amaliy choralarning ko'rib borayotgani bilan izohladi. Yaponiya qonunchiligiga ko'ra, hukumat rahbar xodimlari hech qanday iqtisodiy, moliyaviy, tadbirkorlik sohalarda ishlashi yoki ular bilan aloqada bo'lishi, ularga yuridik yoki boshqa ko'rinishdagi yordam ko'rsatishi mumkin emas [9]. Mansabdor shaxs nafaqaga chiqqanidan keyin besh yil davomida o'zi nazorat qilgan yo'nalishdagi tijorat sohasida rahbarlik lavozimida ishlay olmaydi [10]. Xodimlar bo'limi soveti mansabdordan uning daromadi haqidagi ma'lumotlarni talab qilish huquqiga ega. Yaponiyaning "Saylov to'g'risida"gi Qonuni saylovlarda qatnashayotgan nomzodlarga nodavlat tashkilotlardan moliyaviy yordam olishni qat'iy taqiqlaydi. Yaponiya konstitutsiyasining 15-moddasida davlat xizmatchilari xalq xizmatida bo'lib ular siyosiy betaraf, xalqning qaysidir qatlamigagina xizmat qilishi taqiqlanadi [11]. Yaponiya barcha Xalqaro korrupsiyaga qarshi shartnomalarga qo'shilib kelyapti. XIX asrning o'rtalaridan Yaponiyada ijtimoiy-siyosiy qayta qurish harakati boshlanib, unda davlat va jamiyat qurilishining g'arbcha ko'rinishiga milliylikni saqlab qolgan holatda o'tish harakatlari boshlandi. Bunda qog'ozbozlik to'siqlari yo'q qilinishi yo'lida eng katta natijalarga erishgan g'arb davlatlari tajribalari o'zlashtirildi. Bu bilan 90-yillardagi rahbar lavozimdagilarning tadbirkorlik sub'yektlariga nafaqat yozma, balki og'zaki buyruq bilan ta'sir o'tkazish holatlari to'xtatildi. XX asr boshlarida tadbirkorlik davlat xizmatidan ko'ra daromadli soha bo'lib, rahbar lavozimidagi xodimlar xususiy sektordagilarga nisbatan 30-50% gacha kam daromad ko'rib kelgan. Hozirgi kunda bu holat tugatilib, amaldorlar serdaromad soha kishilari hisoblanadi.

Yaponiya OAV xodimlarining mustaqil tekshiruvi natijasida davlatda korrupsion bo'hronlar tez-tez sodir bo'lib turadi. E'tiborlisi, ma'lumotlar faqat OAV arxivlarida qolib ketmay, sinchiklab tekshiriladi va muqarrar jazo ta'minlanadi [12]. Davlat xizmatchilarining korrupsiya to'riga ilinib qolmasliklarining yana bir sababi bu - Yaponiya qonunchiligiga ko'ra, har qanday ko'rinishdagi moddiy sovg'a, yordam pora berish hisoblanadi.

Yaponiya poraxo'rlik uchun eng katta jarima solinadigan davlatlar sirasiga kiradi. Yaponiya Jinoyat kodeksining 202-moddasiga binoan, pora bergan, olgan, vositachilik qilgan shaxs uch yilgacha qamoq yoki 2mln 500 000 yuangacha, agar bunday holat yana takrorlansa, 2mln 500 000 yuandan oshiq jarima bilan jazolanadi [13]. 1999-yilda qabul qilingan "Davlat xizmatchilari etikasi to'g'risida"gi Qonun byurokratiya va korrupsiyasiga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi. Qonunning maqsadi xodimning vakolati bilan

bog'liq muammolarni hal qilishdan manfaatdor bo'lgan shaxslardan xizmatlar va sovg'alar olishning keng tarqalgan amaliyotini yo'q qilish edi.

Olib borilayotgan islohotlar va korrupsiyaga qarshi radikal munosabatning tarbiyalanishi samarasi o'laroq, Yaponiya Osiyoda 5-darajadagi, jahondagi eng korrupsiyadan holi 20 talik davlatlar reytingiga kiradi. Korrupsiyaga qarshi samaradorlik Yaponiya hukumati tomonidan ochiq manbalarda taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra 100% dan 85/90% hisoblanadi.

Xulosa. Yuqorida aytib o'tilganlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, korrupsiyani inson omili yuzaga keltiradi. Inson omili esa o'zgaruvchan va moslashuvchan ekanligi rad etib bo'lmas aksiomadidir. Korrupsiyaga qarshi universal usullar mavjud emas, shuning uchun dunyodagi har bir mamlakat o'zining ichki voqeliklariga asoslanib, o'zining strategiyasini va korrupsiyaga qarshi choralar tizimini tanlaydi. Biroq, ijobiy rivojlanish tajribasini amalga oshirish uchun korrupsiyaga qarshi tashqi strategiyalarni o'rganish kerak. Ushbu tajribalarning nusxasini bizning mamlakatimizga ko'chirib olish imkonsiz va hatto xavfli, chunki korrupsiyaga qarshi strategiyalar har doim davlatning ichidagi korrupsiya omillari asosida amalga oshiriladi. Omillar esa turli bo'lib, deyarli bir-birini takrorlamaydi. Ammo xorijiy mamlakatlarning korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli tajribasi qanday xatolarga yo'l qo'yib bo'lmasligi, qaysi choralar samaraliroq ekanligini ko'rsatib bera oladi. Buning uchun nafaqat mamlakatimizda odatdagidek zarur siyosiy iroda, balki hokimiyat organlari, xususiy biznes, notijorat tashkilotlar va fuqarolarning qat'iy rejali, uzoq muddatli koalitsiyaga birlashishi talab etiladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ushbu koalitsiyadan korrupsiyaning o'zgarishini kuzatib borish uchun doimiy harakatlar talab etiladi va shu asosda murakkab va o'z-o'zidan paydo bo'ladigan ijtimoiy muammoni hal qilish uchun doimiy kuch sarflanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. https://www.academia.edu/36038830/CORRUPTION_CAUSES_AND_CONSEQUENCES.docx
2. <https://euroscopemag.eu/fact-check-e-904-billion-goes-to-corruption-in-the-eu-every-year/>
3. Combating poverty and inequality. UNRISD publication 2010. ISBN 978-92-9085-076-2
4. Xitoy Xalq Respublikasi jinoyat kodeksi, 383-modda, 2016-yil.
5. Xitoy kompartiyasining XVIII syezdi. Prizedent Si Zin Pin nutqi. 2018-yil 11-dekabr.
6. <https://news.rambler.ru/2018/12/09/>
7. <https://news.rambler.ru/2018/12/09/>
8. В.Себастьян. Борьба с коррупцией и гражданское общество в Германии. Университет Констанцы Бишкек, Январь 2014
9. Моисеев В.В. Международный опыт противодействия коррупции, Среднерусский вестник общественных наук, (100) № 3 2013. С 175.
10. Моисеев В.В. Международный опыт противодействия коррупции, Среднерусский вестник общественных наук, (100) № 3 2013. С 177.

11. Юрковский А.В. Актуальные проблемы противодействия коррупции. Проблемы национальной безопасности. №6(351). М.: Совет Федерации ФС РФ. С. 45-56.
12. Полохов С.А. Мировой опыт борьбы с коррупцией. Сборник материалов научных семинаров и заседаний дискуссионного клуба (2011-2013). Москва 2014. С117.
13. Yaponiya jinoyat kodeksi, 202-modda.